

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti, Maktab menejmenti kafedrası mudiri, dotsent Diyor Tursunov Sunnatovich taqrizi ostida

Eshpo‘latova Hilola Bozorboy qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta‘lim muassasalarining boshqaruvi magistranti
hilolaeshpolatova@gmail.com
97 559 38 38

O‘ZBEKISTONDA TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN MOHIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta‘lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o‘quv tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta‘lim tizimi davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarining rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o‘zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat siyosati, ta‘lim mazmuni, oliy ta‘lim, kadrlar siyosati, tarbiya, o‘quv jarayoni.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining mazmuni ta‘lim taraqqiyotini yuqori bosqichlar eng ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta‘limi darajasiga ko‘tarish, jahon tajribasini o‘rganish asosida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

Ta‘limni boshqarish tizimi shakli va mazmuni jihatidan davlat-jamoatchilik tusida bo‘lishi – eng ilg‘or, va fuqarolik jamiyati yutuqlariga kiruvchi yo‘nalishligini tan olish kerak. Ta‘lim tizimi boshqaruv jarayonining mohiyati va qonuniyatlarini aniqlash, bu jarayonda sodir bo‘ladigan munosabatlarni ochib berish, baholash va boshqaruv sub‘ektining asosiy tamoyillarni ishlab chiqish ta‘limni boshqarish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda ta‘lim sifatiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida¹: Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta‘lim sifatini oshirish uchun kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish, 2022 yilda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish, to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta‘lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish, 2026 yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish vazifasi ko‘rsatib berilgan.

Ta‘limni boshqarish tizimining sifat jihatidan yangi darajasi an‘analar, boy tarixiy va ma‘naviy merosni hisobga olgan holda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham keng foydalanish lozim. Ta‘limni boshqarish tizimi shakli va mazmuni jihatidan davlat-jamoatchilik asosida eng ilg‘or, va fuqarolik jamiyati yutuqlariga kiruvchi yo‘nalishligini tan olish kerak. Zamonaviy mutaxassislarning umri davomida egallayotgan bilimlari poydevori oliy ta‘lim muassasalarida yaratilayotganligi nuqtai nazaridan oliy ta‘lim sifatini oshirish masalasi kompleks hal qilinishi zarur bo‘lgan muammo hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida ta‘lim tizimini boshqarish ta‘lim tizimi organlari va ularning vazifalari, ish faoliyatining mazmuni, metodlarini belgilab beradi, shuningdek, ta‘lim muassasalariga rahbarlik qilish tizimini asoslaydi. Bu esa ta‘lim tizimini miqdor va sifat jihatidan rivojlantirishda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan, ma‘lum tamoyillar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog‘langan barcha tipdagi o‘quv-

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).

tarbiya muassasalari yig'indisini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qiladi, bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimini mustaqil ijtimoiy faoliyatning eng muqim jizzalaridan biri deb qo'llab-quvvatlaydigan yoshlarning kasbiy yutuqlarini ta'minlashga yo'naladi. Ular ilg'or bir fikr muomsizligini, yoshlarning fikr to'pxonalari va xayoliy va fanlarga engil deb qaror qilish hamda odamlar uchun jihozlangan sharoitlarda mustaqil fuqarolar sifatida yashashi uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'z ichiga oladi.

Jahon iqtisodiyotining intensiv rivojlanishi va raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida ta'lim sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi strategik sohalardan biri sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. "Hozirga kelib, ta'lim xizmatlari xalqaro bozorining hajmi 100 mlrd. AQSh dollari tashkil etmoqda. «Inson kapitali» dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 70 foiz, o'rta daromadli mamlakatlarda 58 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmoqda"². Bugungi kunda oliy ta'limning innovatsion taraqqiyotning yetakchi omiliga aylanib borishi sharoitida ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishga muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Boshqaruv faoliyatining mohiyati to'g'risida g'oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullari haqida tizim mavjuddir. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faoliyatining ilmga bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bir tomondan, ta'lim boshqaruv faoliyatini konseptual boyitishdan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan amaliyotchi boshqaruvchilar o'z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladilar.

Shu o'rinda ta'lim faoliyatining jamiyat rivojlanishining muhim komponenti ekanligini ta'kidlab bu borada olimlarning qarashlariga e'tibor qaratamiz. Akademik S.S.G'ulomovning e'tirof etishicha³ "Ta'lim shunchaki jamiyat hayotining tomonlaridan birigina emas, balki umuman jamiyat rivojlanishining yetakchi, tizim hosil iluvchi omili bo'lmoqda".

Bu fikrni davom ettirgan iqtisochi olim Sh.R.Xolmuminov⁴, "Zamonaviy sharoitlarda o'zbek ta'lim siyosatining asosiy vazifasi – ta'limning zamonaviy xususiyatlarini uning asosligi va davlat, jamiyat va shaxsning faol va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqligi asosida ta'minlash. Shunday qilib, ta'limni modernizatsiyalash - bu faqat mamlakat ta'lim majmuini rivojlantirishning muammolari majmui emas, balki ham siyosiy, ham umummilliy masaladir; u biror idoraga mansub loyiha bo'lishi mumkin emas. Respublika fuqarolari, davlat organlari institutlari, mahalliy o'zini boshqarish organlari, professional-pedagogik jamoatchilik, ilmiy, madaniy, tijorat va ijtimoiy institutlar ta'lim siyosatining faol sub'ektlari bo'lishlari lozim".

Boshqa olimlarning ta'kidlashicha, ta'lim "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, bu, inson, jamiyat, davlat manfaatlari yo'lidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayoni; fuqarolar (ta'lim oluvchilar) davlat tomonidan belgilangan ta'lim darajasi (ta'lim mezoniga) erishuvini ta'minlaydi. YUNESKO XTSTga muvofiq "ta'lim" termini o'zida ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadlarida amalga oshiriladigan aniq maqsadga yo'naltirilgan va muntazam faoliyatning barcha turlari

²<https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly>; <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649>

³Gulyamov S.S. Obrazovanie v Uzbekistane: den segodnyashniy. M.// Alma mater. 2002. №7 8 S.

⁴Xolmuminov Sh.R. O konsepsii modernizatsii obrazovaniya // Obrazovanie i sotsialno-ekonomicheskoe razvitie v nachale tretogo tysyacheletiya. Tez. dokl. konf. «XIX-Mejdunarodnye Plexanovskie chteniya», po-svyashennoy 10-letnemu yubileyu Filiala REA im. G.V. Plexanova v g. Tashkente. 2 fevralya 2006 goda. –T., 2006. – I. – S. 17-19

ma'nosini o'zida ifoda etadi. Ta'lim deganda o'quvni yuzaga keltiradigan tashkiliy va barqaror aloqa jarayoni tushuniladi"⁵.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga quyidagi asosiy xususiyatlar ta'sir ko'rsatadi:

1. Bilim olishga nisbatan ta'lim tizimi tushunchasining kengayib borayotganligi.
2. Ta'lim funksiyasini faqatgina maktab, institut, universitet bajarmaydi balki ijtimoiy institutlar ham alohida o'rin egallaydi.
3. Ta'lim funksiyalarini oshirishda korxonalar kasb ta'limini berishni o'z zimmlariga oladilar.
4. Bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining qaror topishi, ta'lim mahsulotlari va xizmatlar bozorining shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xoslik kasb etadi.
5. Globallik yangi ta'lim tizimiva uning qaror topishi jarayonlarining o'ziga xos xususiyati.
6. Yangi ta'lim tizimi insonning butun umri mobaynida ta'lim olish tizimi sifatida shakllanmoqda.

ta'lim xizmatlari iste'mol qilinishi olib borishi sababli ro'y beradi".

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda quyidagi mualliflik ta'rifini ilgari suramiz: O'zbekistonda ta'lim tizimida yagona davlat siyosatini yuritishda ta'lim majmuasini davlat tomonidan boshqarish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim ustuvorligi yuqori darajada davlat siyosatida ta'lim tizimini boshqarishning zarur darajasini ta'minlash nuqtai – nazaridan ta'lim tizimini boshqarishda ishtirok etuvchi kadrlarni tayyorlash tizimining joriy etilishi ta'lim tizimini muntazam rivojlantirib borishni ifodalaydi.

Ta'lim tizimining rivojlanishi uning ziddiyatliligi va murakkabligini ko'rsatadiki, uni boshqarishda samarali usullardan foydalanish globallashuv sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta'limning insonlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Ta'lim tizimini tubdan yangilash ta'limni boshqarish davlat organlari va ta'lim tizimi ob'ektlari o'rtasida tegishli kadrlar tayyorlash shartnomalarini rivojlantirish, unda ta'lim sifati va samaradorligi talablarini belgilash va ushbu talablarning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat yuritish mexanizmini yuritish talab qilinadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimi xizmatlari sifatiga tegishli bo'lgan talablar davlat ta'lim standartlarini rivojlantirishni ifodalaydi. Asosiy ta'lim dasturlari mazmunining majburiy minimumi, yuklama hajmi, boshqa talablar belgilanadigan ushbu standartlar ta'lim tizimida olingan ta'lim darajasini va uning sifat darajasini baholash negizi bo'lib qolmoqda.

Ta'lim muassasasidagi boshqaruv jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarga to'xtalib o'tamiz. Boshqaruv jarayoni samaradorligi juda ko'p omillarga bog'liq. Biz ularni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratamiz. O'z-o'zidan ma'lumki, ichki omillar faqatgina ta'lim muassasasining ichki shart-sharoitlari bilan bog'liq. Ularga xodimlar va professor-o'qituvchilarning malakasi, muassasaning moddiy ta'minlanganligi, tashkilot madaniyati kabilar kiradi. Ta'lim muassasasi boshqaruv samaradorligiga tashqi omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Ushbu omillarga muassasaning joylashgan o'rni, mahalliy boshqaruv organlarining siyosati, ijtimoiy muhit va boshqalar kiradi.

Muassasaga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra ijobiy va salbiy omillarni ajratish mumkin. Ijobiy omillar o'quv muassasining boshqaruv samaradorligining ortishiga xizmat qilsa, salbiy omillar samaradorlikning ijobiy o'zgarishiga to'sqinlik qiladi.

Shunday omillar borki, ular istalgan ta'lim muassasining boshqaruv samaradorligiga bir xilda ta'sir qiladi. Bunday universal omillar qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- quyilgan maqsadlarning sifati;
- maqsadlarni real amalga oshirish imkoniyati, ya'ni, ularning qo'yilgan maqsadga erishish vositalari

⁵Oliy ta'lim: (lug'at–ma'lumotnoma) / Tuz: M.X. Saidov, L.V. Peregudov, Z.T. Tohirov. – T.: Moliya, 2003. – 456 b.

bilan muvofiq kelishi;

- joriy holatni to‘g‘ri baholash;
- muassasa rahbari va xodimlarini qo‘yilgan maqsadlar yo‘lida motivatsiyalash;
- o‘quv muassasasi rahbarining salohiyati va shaxsiy sifatлари;
- qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun ajratilgan resurslarning miqdori va sifati;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat va jamiyat hamda kollegial boshqaruv organlarining ishtiroki.

Shuningdek, ta‘lim muassasalari boshqaruv tizimida boshqaruv jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, uning samaradorligi tushunchalarini aniq ajratilishi, uning mazmuni va mohiyati ochib berilishi, ta‘lim muassasalarida ierarxiyalar ta‘lim usuli asosidagi kafedralar reytingi modeli ishlab chiqilishi, uning boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash usullariga asoslanishi ta‘lim muassasasi boshqaruv samaradorligini baholashda yuqori natijalarga erishishda ta‘sir etuvchi omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son farmoni 29.10.2020-yil
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar.Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. - 104 b.
3. Muur. Ta‘lim berish va ta‘lim olish: pedagogika, ta‘lim dasturi va tarbiya. - Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 202-bet.
4. Zaynutdinov Sh, N. Innovatsion menejment.. -T.: Akademiya, 2006. -С.267. Зайнутдинов Ш.Н Теория пять «И» нан новая система факторов процветания государства.
5. LAP LAMBERT Academic Publishig RU, 2018. -С. 49; Расулев А.Ф. Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике //.
6. “Ta‘lim muassasalarida boshqaruv jarayoni va o‘quv sifatini takomillashtirish muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to‘plami (2022-yil 6-dekabr)